
PENSIYA HISOBLASHDA INOBATGA OLINADIGAN O'RTACHA ISH HAQI MIQDORI OSHIRILDI

2023 yil 1 yanvardan boshlab pensiyalarini hisoblab chiqarish uchun qabul qilinadigan o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori chegarasi pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining o'n barobaridan o'n ikki barobariga oshirilishi belgilangan.

Bunda, pensiya tayinlashda hisobga olingan o'rtacha oylik ish haqi miqdori 3 mln. 240 ming so'mdan yuqori bo'lgan pensionerlarning pensiyalari qayta hisob-kitob qilib chiqiladi.

Bugungi kunda Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tomonidan o'rtacha oylik ish haqi miqdori 3 mln. 240 ming so'mdan yuqori bo'lgan barcha pensionerlarning pensiyalari qayta hisob-kitob qilinib, pensiyasi oshadigan fuqarolarga joriy yilning dekabr oyida SMS xabar yuborildi.

Eslatib o'tamiz, pensiyalarning miqdori avtomatik tarzda qayta hisob-kitob qilinib, bunda pensionerlarning Pensiya jamg'armasiga murojaat etish zaruriyati yo'q.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2022-12-19 14:42:55